

PREZIDENT I.A.KARIMOV ASARLARIDA YORITILGAN AHLOQIY- MA'NAVIY TARBIYA MASALALARINI O'QITILISHI

**R.Xolmatov, Sh Shomurodov **,
F.Qo'ldashev** - Qo'qon DPI**

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sohalarda islohotlarni tubdan amalga oshirish boshlab yuborildi. Ayniqsa, ahloqiy va ma'naviy tarbiya muammolarini muvaffaqiyatli hal qilmay turib, odamlarimiz, yoshlarimiz ongida, qalbida xatti-harakatlari, muomalasi, munosabatlarida chinakam komil insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Binobarin eng avvalo ahloqiy tarbiyaga jiddiy ahamiyat berish zarur. Odamlarimizda ahloqiy madaniyatni yuksaltirish uchun ahloqiy ong, ahloqiy xatti-harakat, ahloqiy amallar bo'lishi lozim. Ahloqiy madaniyat har bir shaxs ahloqiy tarbiyasi, rivojining muhim mezonidir.

Prezidentimiz o'z asarlarida, nutqlarida hamda suhbatlari davomida ahloqiy-ma'naviy tarbiyaga alohida vajuda jiddiy e'tibor berayotganligini boisi ham ana shunda. Yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ro'y-rost ko'ratib o'tganidek, odamlarimiz orasida ahloqiy ma'naviy tarbiya bobida qator kamchilik, nuqson, xatolarga yo'l qo'yish hollari yaqqol sezilib qolmoqda.

Odamlarimizning chinakam insonga xos xususiyatlariga hamon ta'sir ko'rsatayotgan, eski zamonlardan sarqit sifatida qolib kelayotgan noma'qul odatlar xususida so'zlab, Prezidentimiz I.A.Karimov xudbinlik, loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, ta'magirlik, korrupsiya, manfaatparastlik, boshqarishni mensimaslik, hasad, sotqinlik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish zarurligini ta'kidlaydi. Prezidentimizning ta'kidlashicha: "Dono xalqimiz g'araz va hasad bilan yashaydigan, c'z shaxsiy manfaatlariga o'zgalar hisobidan erishishni ma'qul ko'radigan, faqat o'zini o'ylaydigan kimsalardan o'zi asrasin, - deydi. - Bag'rikeng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtining g'am-tashvishlari bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha boshiga ko'taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat topadi". I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagining poydevori" asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy- ahloqiy negizlari haqida, "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", "Milliy istiqlol mafkurasi" kabi asarlarida esa ma'naviy yuksalish, ahloqiy-ma'naviy sohalarga oid qimmatli maslahat va yo'l-yo'riqlarni bergan. Ayniqsa, yurtboshimiz yechilmagan

ma'naviy va ahloqiy masalalarga to'xtalib o'tar ekan, eng avvalo va birinchi navbatda bu sohada doimiy ish olib borishimiz zarurligini ko'rsatib o'tadi; "Bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlagan maqsadga erisha olmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topa olmaymiz". Shu fikrni mantiqiy davom ettirib yurtboshimiz: "... ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", - deb ta'kidlagan edi.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, ahloqiy tarbiyani rivojlantirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, vatanni sevish va mustaqilligimizni asrab-avaylash kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topadi. Shuning uchun har bir ota-ona shu muqaddas tuyg'ularni farzandlarida shakllantirishga katta e'tibor berishlari lozim. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, odob-ahloq, insoniy munosabatlar asosida qurish kerak. Shuni ta'kidlash joizki, kelajagimiz poydevori oilada va bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqiraizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiylar eng avvalo har bir bola timsolida shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Prezidentimizning: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" degan fikrlarida ham ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish

zarur ekanligini hayotning o'zi taqazo etishini ko'rishimiz mumkin. Yurtboshimizning fikricha, bu ishni ta'lim-tarbiya sohasidan boshlashimiz zarurligini takidlaydilar. Chunki hammayaxshi biladiki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Demak yurtboshimiz I.A.Karimov asarlarida barcha o'qtuvchi va murabbiylarimiz oliyjanob mexnatlari tufayli ahloqiy ma'naviy tarbiyaning fanlarning jumladan tarix fanining metadalogik asosi sifatida o'rganish, ta'lim jarayonida retrospektiv tarixiy taqqoslash, senxrom, xranologik usullardan foydalanish orqali yoshlarimiz ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va ularda ahloqiy ma'naviy tarbiyani yuksaltirish zarurligi takidlab o'tiladi.